

---

# SOLIQCHI-KO'MAKCHI



## Oltiariq tumani soliq inspeksiyasi boshlig'ining hisoboti

Prezidentimizning tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida biznes yuritishni soddalashtirish, soliq yukini kamaytirish yuzasidan belgilab berilgan topshiriqlari, xususan, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, o'zini o'zi band qilgan shaxslarga soliq solish tartibini takomillashtirish, qo'shilgan qiymat solig'i zanjirining uzluksizligini ta'minlash maqsadida "Soliq va budget siyosatining 2024-yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'RQ-891-sonli O'zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Qonunda quyidagi o'zgarishlar nazarda tutilgan.

- Kameral soliq tekshiruvida soliq to'lovchining hududiga kirish, hududini ko'zdan kechirish, hujjatlarni talab qilish va uni chaqirtirish, hujjatlari va buyumlarini olib qo'yish taqiqlandi;

- Yuridik shaxslar va YTTlarga kameral soliq tekshiruvi natijasida qo'shimcha hisoblangan soliqlarni 6 oy mobaynida teng ulushlarda bo'lib-bo'lib to'lash huquqi berildi;

- Soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddati 5 yildan 3 yilga qisqartirildi;

- YTTlar uchun qat'iy belgilangan JShODS stavkalari o'zgardi. Mazkur stavkalar yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 2024-yil 1-fevraldan kuchga kiradi. 2024-yil yanvar oyida qat'iy belgilangan miqdordagi daromad solig'i 2023-yildagi stavkalar bo'yicha to'lanadi;

- 2024-yildan boshlab o'zini o'zi band qilgan shaxslarning faoliyati natijasida olgan daromadlari 100 mln so'mdan oshganda, oshgan kundan e'tiboran yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan tartibda soliq to'lashga o'tadi.

Shuningdek, QQS bo'yicha ayrim imtiyozlar bekor qilindi. 2024-yil 1-apreldan boshlab quyidagilar bo'yicha savdo aylanmasi QQSga tortiladi:

tibbiy xizmatlar;

veterinariya xizmatlari;

dori vositalari;

veterinariya dori vositalari, tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda quyidagilar QQSga tortiladi:

dori vositalari,

veterinariya dori vositalari,

tibbiyot va veterinariya uchun mo'ljallangan buyumlar,

shuningdek qonunchilikda belgilanadigan ro'yxat bo'yicha olib kiriladigan xomashyo.

Bundan tashqari, 2024-yil 1-apreldan quyidagilarga aksiz solig'i joriy etiladi:

- tarkibida shakar yoki boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylashtiruvchi moddalar bo'lgan, gazlangan hamda iste'mol qadog'iga qadoqlangan ichimliklar (energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar bundan mustasno) – 1 litr uchun 500 so'm;

---

- energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar – 1 litr 2 000 so'm.

Shu bilan birga, aylanmadan olinadigan soliqni qat'iy belgilangan summada to'lovchi soliq to'lovchilar uchun soliq stavkasi quyidagi miqdorlarda o'zgartirildi:

---

Jami daromadi besh yuz million soʻmdan oshmagan soliq toʻlovchilar uchun – yiliga 25 mln soʻm;

Jami daromadi besh yuz million soʻmdan yuqori boʻlgan soliq toʻlovchilar uchun – yiliga 34 mln soʻm.

Taʼkidlash joiz, ayni kunlarda Oltiariq tumani soliq inspeksiyasi xodimlari tomonidan tadbirkorlar bilan turli ochiq muloqot va uchrashuvlar tashkil etilib, mazkur yangiliklar mazmun-mohiyati tushuntirilmoqda, shu bilan birga, ularni qiynayotgan muammolar oʻrganilib ijobiy hal etish choralarini koʻrilmoqda.

Shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun muhim boʻlgan qator yoʻnalishlarni belgilab olgan holda amaliy yordamlar koʻrsatilmoqda.

Xususan, 2023-yil dekabr oyi davomida Oltiariq tumani soliq inspeksiyasi tomonidan 352 ta tadbirkorlik subektlarini qiynayotgan muammolar oʻrganildi. Mazkur jarayon davomida koʻmaklashish zarur boʻlgan 110 ta tadbirkorlik subektlariga dastlabki buxgalteriyasini yuritish, qulay soliq rejimini tanlash, soliq imtiyozlari va ularni qoʻllash tartibini tushuntirish, ortiqcha QQS toʻlovlarini qaytarish kabi masalalar yuzasidan amaliy yordamlar koʻrsatildi.

Biz, soliq idoralari xodimlari bundan buyon ham, albatta, Prezidentimiz belgilab berganlaridek, tadbirkorga maslahatchi, koʻmakchi va yaqin hamkor sifatida faoliyatimizni davom ettiramiz.

I.Sultonov

Oltiariq tuman DSI boshligʻi.

2024-01-08 17:46:01